



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate

Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor

Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor

Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)

Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)

Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan

Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor

Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer

Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor

Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)

Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor

Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)

Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE

Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Xamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQUISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Бахриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVATION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoyev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abdusalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIJ MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
<i>Axmedov Oybek Turgunpulatovich</i>	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
<i>Madraximov Ilxom Kamilovich</i>	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
<i>Zaripov Xusan Baxodirovich</i>	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
<i>Xamrayev Quvvat Iskandarovich</i>	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
<i>Jalilov Jamshid G'anjionovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li</i>	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
<i>Xayitboev Abror Quvondiqovich</i>	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
<i>Гулмаматова Дурдона Шерали кизи</i>	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
<i>Musayeva Dilnoza Dilshatovna</i>	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
<i>Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li</i>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
<i>Qulliyev Anvar Zayniddinovich</i>	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
<i>Alimov Umid O'ktambayevich</i>	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
<i>Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi</i>	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
<i>Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova</i>	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
<i>Останов Эгамберди</i>	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
<i>Xakimova Xulkar Xamidovna</i>	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
<i>Tleuov Niyetulla Raxmanovich</i>	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
<i>Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna</i>	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
<i>Sadikov Shoxrux Shuxratovich</i>	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
<i>Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna</i>	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
<i>Djalilova Dilbar Abdikarim qizi</i>	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI.....	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI.....	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI.....	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA.....	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIVAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА.....	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI.....	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
“KREATIV IQTISODIYOT” HAMDA “TURIZM” TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	
THE STRATEGIC ROLE OF THE INDUSTRIAL SECTOR IN THE NATIONAL ECONOMY AND DEVELOPMENT FACTORS.....	380
Rakhimov Bakhromjon Ibroximovich	
INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	386
Ismailov Dilshod Anvarjonovich	
GLOBAL INCOME INEQUALITY IN 2024: CAUSES, PATTERNS, AND CONSEQUENCES.....	393
Ilxomjonov Jaxongir Alisher o'g'li	
ТОРГОВЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СВОБОДНО ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗОНАХ: ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ	401
Шарифходжаев Шавкат Окилович, Ачилова Ширин Шавкат кизи	
O'ZBEKISTON KON-METALLURGIYA SANOATI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA HOZIRGI HOLATI	407
Ergashov Botirjon Ergashovich	
PENSIYA JAMG'ARMASIDA DAVLAT BUDJETI TRANSFERTLARI ULUSHI HAMDA UNING XORIJ TAJRIBASI	415
Sherjonov Doniyor Saparbayevich	
O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARINI QIMMATLI QOG'OZLAR BOZORIDAN FOYDALANIB MOLIYALASHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI.....	419
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI.....	425
Eshkarayev Bobir Chariyevich	



QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I BO'YICHA FIRIBGARLIKLAR: MEXANIZMLARI, SABABLARI VA ULARNI OLDINI OLISH YO'LLARI

Eshkarayev Bobir Chariyevich

Termiz davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: bobireshkaraev@gmail.com

ORCID: 0009-0002-2301-0474

Annotatsiya. Mazkur maqolada qo'shilgan qiymat solig'i [QQS] bo'yicha firibgarliklarning iqtisodiy mohiyati, ularning asosiy turlari, kelib chiqish sabablari va davlat budjetiga salbiy ta'siri yoritilgan. Xalqaro tajriba, jumladan Yevropa Ittifoqi, Janubiy Koreya, Singapur va Rossiya misolida QQS firibgarliklariga qarshi kurash mexanizmlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda joriy etilgan elektron hisob-fakturalar, xavfni tahlil qilish tizimlari va QQS qaytaruvining samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijasida QQS firibgarliklarini kamaytirishga qaratilgan mualliflik takliflari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: QQS, qo'shilgan qiymat solig'i, soliq firibgarligi, elektron hisob-faktura, risk-analiz, eksport, karusel firibgarligi, qalbaki hisob-faktura, soya iqtisodiyoti.

Abstract. This article examines the economic essence of value-added tax fraud (VAT), its main types, causes of occurrence, and negative impact on the state budget. Based on international experience (European Union, South Korea, Singapore, Russia), mechanisms for combating VAT fraud were studied. The effectiveness of the electronic invoice systems, risk analysis, and VAT refunds implemented in Uzbekistan was also evaluated. As a result of the research, author's proposals aimed at reducing VAT fraud were developed.

Key words: VAT, value added tax, tax fraud, electronic invoices, risk analysis, export, carousel fraud, fake invoices, shadow economy.

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическая сущность мошенничества по налогу на добавленную стоимость (НДС), их основные виды, причины возникновения и негативное влияние на государственный бюджет. На основе международного опыта (Европейский Союз, Южная Корея, Сингапур, Россия) изучены механизмы борьбы с мошенничеством с НДС. Также была оценена эффективность внедренных в Узбекистане систем электронных счетов-фактур, анализа рисков и возврата НДС. В результате исследования были разработаны авторские предложения, направленные на снижение мошенничества с НДС.

Ключевые слова: НДС, налог на добавленную стоимость, налоговое мошенничество, электронные счета-фактуры, риск-анализ, экспорт, карусельное мошенничество, поддельные счета-фактуры, теневая экономика.

KIRISH

Qo'shilgan qiymat solig'i [QQS] davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi eng muhim bilvosita soliqlardan biri hisoblanadi. Uning iqtisodiy ahamiyati yuqori bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi statistik ma'lumotlariga ko'ra 2022–2024-yillarda budjet tushumlarida QQSning ulushi 20–25 foizni tashkil etgan¹. Shu bilan birga, QQSning qaytaruv mexanizmi mavjudligi, hisob-fakturalar zanjiriga asoslanganligi va eksport operatsiyalariga nisbatan 0 foizlik stavka qo'llanilishi mazkur soliq turini firibgarlikka eng moyil soliqlardan biriga aylantirmoqda.

¹ <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2>



Yevropa Ittifoqida QQS bo'shlig'i (VAT Gap)² soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholovchi asosiy indikatorlardan biri hisoblanadi. Yevropa Komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda YEIda umumiy QQS bo'shlig'i 89,3 mlrd yevroga teng bo'lib, umumiy QQS majburiyatining 7,0 foizini tashkil etgan³. Eng yuqori QQS bo'shlig'i Ruminiya (30,6 foiz), Italiya (26,1 foiz) va Ispaniya (29,3 foiz) davlatlarida qayd etilgan. Shu bilan birga, Kipr, Portugaliya va Irlandiyada QQS bo'shlig'i 2 foizdan past darajada saqlanib qolgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, QQS bo'shlig'ining asosiy sabablariga karusel firibgarligi, soliqdan qasddan bo'yin tovlash, bankrotlik, yashirin iqtisodiyot hamda ma'muriy xatolar kiradi. IHTT mamlakatlari tajribasi esa raqamlashtirish, real-time e-invoicing va risk-tahlil modellari QQS firibgarligini keskin kamaytirishda samarali vosita ekanini tasdiqlamoqda⁴.

Xalqaro iqtisodiy amaliyot ko'rsatishicha, QQS firibgarliklari davlat budjeti uchun katta moliyaviy yo'qotishlar keltirib chiqaradi. Ayniqsa, "karusel" firibgarligi, qalbaki hisob-fakturalar, soxta eksport orqali QQS qaytarib olish kabi sxemalar keng tarqalgan. Statistik ma'lumotlarda har yili Yevropada QQS borasidagi firibgarlik sxemalar ta'sirida 50 mlrd yevro davlat budjetiga tushmasligi keltirib o'tilgan⁵.

O'zbekistonda so'nggi yillarda raqamlashtirish jarayonlari chuqurlashib, elektron hisob-fakturalar, onlayn-kassalar, xavfli soliq to'lovchilarni tahlil qilish tizimlari joriy etildi. Biroq shunga qaramasdan, QQS firibgarliklari butunlay bartaraf etilgani yo'q. Shu sababli QQS firibgarliklarining iqtisodiy mohiyatini va ularni oldini olish mexanizmlarini ilmiy asosda tadqiq etish mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

QQS firibgarliklari va soliq ma'muriyatchiligi masalalari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng o'rganilgan.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ushbu mavzu asosan Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) va Jahon banki tadqiqotlarida chuqur yoritilgan. Jumladan, Ebrill, Kiyn, Bodin, Sammers tomonidan tayyorlangan "The Modern VAT" asari⁶da QQS ma'muriyatchiligi, soliq qaytaruvi va firibgarlik mexanizmlari ilmiy asosda tahlil qilingan. IHTT tomonidan tayyorlangan "Consumption Tax Trends" hisobotlarida VAT Gap, karusel firibgarliklari va transchegaraviy sxemalar keng yoritilgan.

Rossiya va MDH mamlakatlarida Mayburov I.A., Fayzeev R.T., Popova N.F., Chikalina N.A., Beloxrebtov V.S., Dryaglina S.A. kabi olimlarning ishlari⁷da QQS firibgarliklari sxemalari, ma'muriy nazorat qilish, firibgarliklarni aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari tahlil qilingan.

O'zbekistonda esa mazkur yo'nalish Toshmatov Sh.A., Jalilov I.E., Kamilov M.M., Urazmatov J.M., Niyazmetov I.M. kabi iqtisodchi olimlar tomonidan o'rganilgan. Ular o'z ishlarida QQSning iqtisodiy mohiyati, budjetdagi o'rnini, ma'muriy nazorat mexanizmlari va islohotlar samaradorligi, QQS bo'shlig'ini tahlil qilganlar. Bu borada D.Sultonov, Sh.Abdulxayeva, I.Aripova, K.Xotamov, J.Yusupovlarning ilmiy ishlari⁸ alohida e'tiborga loyiq.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda iqtisodiy hodisalarni bilishning - tahlil va sintez; induksiya va deduksiya; taqqoslama tahlil; statistik tahlil usuli; tizimli yondashuv kabi ilmiy usullaridan foydalanildi. Shuningdek, tadqiqotda Xalqaro Valyuta Jamg'armasi, IHTT, Jahon banki, Yevropa Komissiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanildi.

2 International Monetary Fund. Measuring the VAT Gap. – IMF Working Paper, Washington D.C., 2014. (QQS bo'shlig'i – qonunchilikka muvofiq yig'ilishi lozim bo'lgan QQS bilan amalda yig'ilgan QQS o'rtasidagi farq sifatida ta'riflanadi)

3 European Commission. EU VAT Gap Report 2023.

4 OECD. Consumption Tax Trends. Paris, 2022.

5 Sultonov D. QQS borasidagi firibgarliklarning oldini olishga doir ayrim jihatlar. Elektron resurs. 2021. www.norma.uz.

6 Ebrill L., Keen M., Bodin J.-P., Summers V. The Modern VAT. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2001.– 241 p.

7 Файзеев Р.Т. Перспективы развития противодействия мошенничествам в налоговой сфере. //Файзеев Р.Т. //Право и государство: теория и практика – 2019. -№10 (78). – с.177-181., Попова Н.Ф., Чикалина Н.А. Мошенничество в сфере налогообложения в России. //Международный научно-исследовательский журнал. – 2020. - №1 (91). – с.68-71., Белохребтов В.С. Схемы совершения мошенничества с возмещением налога на добавленную стоимость. // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки – 2015. - №2-2., с.37-44., Уклонение от уплаты налогов юридическими лицами. Проблемы и перспективы противодействия: монография для магистрантов, обучающихся по программам направлений «Экономика», «Государственный аудит» и «Финансы и кредит» / [И.А. Майбуrow и др.]; под ред. И.А. Майбуrowa. — М.: ЮНИТИДАНА, 2025. — 303 с. — (Серия «Magister»), Дряглина С.А. НЕЗАКОННОЕ ВОЗМЕЩЕНИЕ НДС // Право и государство: теория и практика. 2019. №12 (180).

8 Sultonov D. QQS borasidagi firibgarliklarning oldini olishga doir ayrim jihatlar. Elektron resurs. 2021. www.norma.uz.; Abdulxayeva Sh. Soliqlarni raqamlashtirish- QQS ning muammo va istiqbollari//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot – 2024. -№8. –486-491-b., Aripova I. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot – 2025. -№4. –2070-2075-b., Xotamov K.R., Yusupov J.O. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'shlig'ini aniqlashda O'zbekiston tajribasi//Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil - 2024-№12. –449-458-b.



TAHLIL VA NATIJALAR

QQS – tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish hamda realizatsiya qilishning har bir bosqichida yaratilgan qo‘shilgan qiymatga solinadigan bilvosita soliqdir. Soliq quyidagi formula orqali hisoblanadi:

To‘lanadigan QQS = Chiquvchi QQS – Kiruvchi QQS

Aynan shu ayirma mexanizmi firibgarlik uchun asosiy sharoit yaratadi. Soliq to‘lovchi:

- kiruvchi QQSni sun‘iy ravishda oshirishi,
- chiquvchi QQSni kamaytirishi,
- yoki QQSni budjetdan qaytarib olishda soxta hujjatlardan foydalanishi mumkin.

XVJ (IMF) ta‘rifiga ko‘ra, QQS firibgarligi — bu soliq to‘lovchilar tomonidan QQS majburiyatini qasddan kamaytirish, soxta hujjatlar orqali QQS qaytaruvini noqonuniy olish yoki budjetga to‘lanishi lozim bo‘lgan QQS summalarini o‘zlashtirib qolishga qaratilgan harakatlar majmuasidir⁹.

IHTT (OECD) esa QQS firibgarliklarini quyidagi iqtisodiy belgilariga ko‘ra tavsiflaydi:

- soliq to‘lov majburiyati bilan real iqtisodiy operatsiya o‘rtasida uzilish paydo bo‘lishi;
- tovar harakati bilan pul harakati o‘rtasida nomutanosiblik;
- kontragentlar zanjirida yo‘qoluvchi kompaniyalar (missing traders) mavjudligi;
- aylanmalarning iqtisodiy mantiqqa zid o‘sishi¹⁰.

QQS firibgarliklari quyidagi salbiy iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:

- davlat budjeti barqarorligining buzilishi;
- tashqi savdoning “hujjatlashtirilgan, ammo real bo‘lmagan” o‘sishi;
- soliq yuki boshqa halol to‘lovchilar zimmasiga o‘tishi;
- raqobat muhitining izdan chiqishi;
- investorlar ishonchining pasayishi.

IHTT (OECD) hisob-kitoblariga ko‘ra, soliq firibgarligi va QQS bo‘shlig‘i yuqori bo‘lgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish sur‘atlari soliq ma‘muriyatchiligi samarali bo‘lgan davlatlarga nisbatan o‘rtacha 1,5–2 foiz punktga past bo‘ladi.

Qalbaki hisob-fakturalar orqali firibgarlik QQS firibgarliklarining eng keng tarqalgan va eng xavfli turi hisoblanib, quyidagicha amal qiladi:

- “fiktiv” (real faoliyati yo‘q) korxonalar tashkil etiladi;
- u tovar yetkazib bermagan holda qalbaki elektron hisob-faktura (EHF) yozib beradi;
- xaridor korxonalar ushbu hisob-faktura orqali “kiruvchi QQS”ni hisobga oladi;
- natijada budjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan QQS summasi sun‘iy ravishda kamayib ketadi;
- fiktiv korxonalar ma‘lum vaqtdan keyin yo‘qoladi, soliq qarzi undirilmay qoladi.

Bu sxemaning iqtisodiy oqibati:

- davlat budjetiga to‘g‘ridan to‘g‘ri zarar;
- halol soliq to‘lovchilarga nisbatan adolatsizlik;
- soya iqtisodiyoti kuchayishi.

“Yo‘qolib ketuvchi kompaniya” (Missing Trader) sxemasi (bir kunlik firmalar) ko‘plab mamlakatlarda keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekistonda ham paydo bo‘la boshlagan. Mexanizmi quyidagicha bo‘ladi:

- 1) kompaniya katta hajmda tovar sotadi;
- 2) sotishda QQSni hisoblaydi, lekin budjetga to‘lamaydi;
- 3) qisqa vaqt ichida:
 - faoliyatini to‘xtatadi,
 - bank hisob raqamlarini yopadi,
 - rahbarni “o‘zgartiradi”;
- 4) Davlat soliqni undirish imkoniyatidan mahrum bo‘ladi.

Asosiy belgilari:

- tez ko‘paygan aylanma;
- asosiy vositalar yo‘qligi;
- xodimlar soni 1–3 nafar;
- ulkan summada QQS qarzdorligi.

Ma‘lumki, ko‘pchilik mamlakatlar kabi O‘zbekistonda ham eksport operatsiyalariga 0% stavka solinadi. Bu normadan suiiste‘mol qilish asosan quyidagicha bo‘ladi:

- real eksport o‘rniga hujjatlar orqali “qog‘ozda eksport” yaratish;
- tovar narxini sun‘iy oshirish orqali qaytariladigan QQSni ko‘paytirish;

9 International Monetary Fund. Revenue Administration: Tax Fraud and Evasion. – Washington, D.C.: IMF, 2018.

10 OECD. Understanding VAT/GST Fraud: Background Paper. – Paris: OECD Publishing, 2017.



- kontragent mamlakatda turli fiktiv firmalar bilan “boshqa mamlakatga jo‘natilgan” deb xato ma‘lumot kiritish.

“Karusel” (Carousel fraud) sxemasining mohiyati:

- import qiluvchi kompaniya QQSsiz tovar olib kiradi;
- ichki bozorda QQS bilan sotadi;
- yig‘ilgan QQSnı budjetga to‘lamay “yo‘qoladi”;
- tovar bir necha kompaniya orqali aylantiriladi;
- zanjirdagi chiqish nuqtasida eksport qilinadi va davlatdan QQS qaytarilishi talab qilinadi.

Shunday qilib budjet ikki marta zararga uchraydi: to‘lanmagan QQS va noqonuniy qaytarilgan QQS.

Importda bojxona qiymatini kamaytirish. Bu firibgarlik turiga quyidagilar kiradi:

1) tovarning bojxona qiymatini sun‘iy kamaytirish;

- real tovar qiymati 100.000 dollar bo‘lsada, bojxonada 40.000 dollar qilib rasmiylashtiriladi;
- QQS ham shu sun‘iy past bazaga nisbatan hisoblanadi;
- natijada budjetga kam QQS tushadi;

2) MXIK kodini noto‘g‘ri ko‘rsatib QQS stavkasini tushirib yuborish;

3) kontrabandani “noqonuniy kirım” sifatida kiritish;

4) ayrim hollarda bojxona bazasi va soliq bazasi o‘rtasidagi ma‘lumotlar muvofiqlashtirishdan foydalanish.

Aylanmani yashirish va ikkilamchi buxgalteriya sxemasi ayniqsa savdo, xizmat ko‘rsatish va umumiy ovqatlanish sohasida ko‘p kuzatiladi.

Amaliy mexanizmi quyidagicha bo‘ladi:

- fiskalizasiya qilinmagan terminal orqali tushum yashiriladi;
- chek berilmaydi;
- EHF bermay xizmat ko‘rsatiladi;
- terminal ishlatmasdan, shaxsiy plastik orqali aylanmani ajratib yuritish.

Natijada haqiqiy aylanma buxgalteriyada aks ettirilmasdan, soliq bazasi sun‘iy kamaytiriladi.

Ayrim hollarda avtomobil, uskuna, binolar yoki boshqa mulklar sotilayotganda:

- eng arzon bahoda “yaqin qarindosh”ga sotiladi, keyinchalik “yaqin qarindosh” orqali bozor qiymatida sotiladi

- lizing shartnomasi rasmiylashtirish orqali, QQS majburiyati kechiktiriladi yoki kamaytiriladi.

QQS firibgarliklari tasodifiy emas, balki iqtisodiy, huquqiy, institutsional va psixologik omillar yig‘indisi ta‘sirida yuzaga keladi.

1) Iqtisodiy sabablar

- soliq yukining nisbatan yuqoriligi;

Masalan, O‘zbekistonda QQS 12% stavkada undiriladi. Bu ayrim tadbirkorlarda aylanmani yashirishga moyillik uyg‘otadi.

- aylanma mablag‘ yetishmasligi;

korxonalar ayni paytda QQSnı budjetga to‘lab, qaytaruvni kech olishi mumkin.

Bu pul oqimida uzilish hosil qilib, ayrim firmalarnı firibgarlikka undaydi.

- inflyatsiya va valyuta kursining ta‘siri;

import tovarlarda QQS yuki sun‘iy ravishda “og‘irlashadi” va soliqdan qochish holatlari ko‘payadi.

- norasmiy (soya) iqtisodining yuqoriligi.

Ma‘lumki, soya iqtisodiyoti — rasmiy hisob-kitobga kirmaydigan, soliq bazasining to‘liq shakllanishiga to‘sqinlik qiluvchi faoliyat segmenti sifatida baholanadi. QQS bilan bog‘liq noto‘g‘ri amaliyotlar ushbu segmentda kuzatiladigan moliyaviy mexanizmlarning biri bo‘lib, uni oldini olish bo‘yicha metodik chora-tadbirlar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bog‘liqlik zanjirining tahlili kelgusidagi raqamlashtirish, monitoring va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlarini belgilab beradi: soya aylanmalarining qisqarishi → EHFning to‘liq rasmiylashtirilishi → QQS tushumlari barqarorlashuvi → VAT Gap qisqarishi → budjet barqarorligining mustahkamlanishi.

Huquqiy omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, soliq qonunchiligi rivojlanish bosqichida bo‘lib, ayrim normalarnı aniqlashtirish, imtiyozlar qo‘llanish mexanizmini takomillashtirish va qaytaruv protseduralarini soddalashtirish orqali soliq intizomini yanada oshirish imkoniyati mavjud. Ma‘muriy javobgarlik mexanizmlarini optimallashtirish esa soliq tizimining izchil ishlashi uchun qo‘shimcha kafolat yaratadi.

Institutsional omillar bo‘yicha soliq ma‘muriyatchiligi tizimida raqamlashtirish jarayonini chuqurlashtirish, ma‘lumot almashinuvi platformalarini to‘liq avtomatlashtirish hamda EHF tizimini yanada mustahkamlash kelgusida firibgarlik xavflarini kamaytirish uchun qo‘shimcha imkoniyatlar ochadi. Hududlarda kameral nazorat, masofaviy monitoring va tekshiruvlarnı raqamli modellar asosida kuchaytirish soliq boshqaruvinı samaradorligini oshirishi kutiladi. Inson omili bilan bog‘liq jarayonlarnı shaffoflashtirish va korrupsiyaviy xavflarnı kamaytirish uchun riskga asoslangan yondashuvlar tatbiq etilishi istiqbolli yo‘nalish sifatida ko‘riladi.



Psixologik va ijtimoiy omillar bo'yicha soliq to'lov madaniyatini rivojlantirish, aholining davlat moliya tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va ijobiy fiskal xulq-atvorni shakllantirish muhim metodik yo'nalish hisoblanadi. Aholi va tadbirkorlar o'rtasida "shaffof soliq to'lov tizimi — barqaror iqtisodiyot" tamoyilini kuchaytirish soliq intizomining oshishiga xizmat qilishi prognoz qilinadi.

QQS bo'yicha xavf indikatorlarini aniqlash metodikasi soliq organlariga monitoringni zamonaviy analitik vositalar asosida olib borish imkonini beradi. Moliyaviy-xo'jalik faoliyati bo'yicha indikatorlar — xodimlar soni, asosiy vositalar, aylanma dinamikasi va qaytaruv talablarining mutanosibliigi — avtomatlashtirilgan risk-modellarni takomillashtirish uchun asos yaratadi.

Kontragentlar zanjirini tahlil qilishda ko'p bosqichli operatsiyalar, "qisqa muddatli faoliyat yurituvchi" subyektlar, bitta manzilda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar yoki bir shaxsga tegishli bir nechta firmalar mavjudligi kabi belgilar tahlilning chuqurlashuvi uchun metodik signal bo'lib xizmat qiladi.

Eksport-import operatsiyalarini baholashda real asosiy vositalar bilan eksport hajmining muvofiqligi, tushumlar bilan bank operatsiyalari o'rtasidagi izchillik, tovar kodlarining barqarorligi va import baholari bozor narxlariga taqqoslanishi risklarni kamaytirish uchun muhim prognoz indikatorlari hisoblanadi.

Ushbu tahlil va indikatorlar asosida soliq ma'muriyatchiligini yanada raqamlashtirish, ma'lumotlar almashinuvi tizimlarini integratsiya qilish va riskga asoslangan nazoratni kuchaytirish QQS bo'yicha firibgarliklarni kamaytirishda sezilarli natija berishi prognoz qilinadi.

QQS firibgarliklariga qarshi xalqaro tajriba ko'plab davlatlarda, xususan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida chuqur shakllangan bo'lib, bunda "karusel" kabi murakkab firibgarlik sxemalarining tarqalishi maxsus axborot almashinuvi va real vaqt tizimlarining yaratilishini talab qilgan. Yevropa Ittifoqida bu borada bir nechta yirik tizimlar shakllangan. VIES yagona bazada barcha a'zo davlatlar QQS to'lovchilari haqidagi ma'lumotlarni birlashtiradi, tadbirkorlarning QQS raqamlarini onlayn tekshirish imkonini beradi hamda transchegaraviy operatsiyalar bo'yicha kontragentlarni tezkor tasdiqlash jarayonini soddalashtiradi. Eurofisc esa firibgarlik bilan bog'liq xavf signallarini real vaqt rejimida almashish imkoniyatini yaratadi. Bir davlatda shubhali vaziyat paydo bo'lishi bilan boshqa davlatlarga axborot uzatiladi va bu tizim "karusel" sxemalarini barvaqt aniqlash hamda zararsizlantirishga xizmat qiladi. SAF-T tizimi esa buxgalteriya ma'lumotlarini standart elektron formatda soliq organlariga uzatish orqali elektron tahlil imkoniyatlarini kengaytiradi, kameral tekshiruv samaradorligini oshiradi va umumiy nazorat sifatini mustahkamlaydi.

Janubiy Koreya tajribasi real vaqt tamoyiliga asoslanadi. Bu davlatda barcha hisob-fakturalar elektron tarzda darhol soliq organlariga uzatiladi, natijada tovar harakati, pul o'zgarishlari va QQS hisoblari yagona zamonda ko'rinadi. QQS qaytaruv jarayoni tezlashtirilgan bo'lsa-da, u kuchli avtomatlashtirilgan xavf tahlili orqali nazorat qilinadi. Singapur tizimida esa ishonchli soliq to'lovchilar uchun "yashil yo'lak" amaliyoti qo'llanadi. Ular uchun qaytaruv tezkor amalga oshiriladi, xavf guruhidagi to'lovchilar esa chuqur tahlil va qo'shimcha hujjat talablariga duch keladi. Bank ma'lumotlari, bojxona axborotlari va soliq ma'lumotlari integratsiya qilinib, barcha oqimlar yagona analitik maydonda kuzatiladi. Rossiyada QQS bo'yicha firibgarliklar, ayniqsa qalbaki hisob-fakturalar keng tarqalgan davrda ASK NDS-3 tizimi joriy etilib, hisob-fakturalar, kontragentlar zanjiri va aylanmalar elektron tarzda avtomatik tahlil qilina boshlandi. Bu tizim xavfli zanjirlarni avtomatik aniqlab, soliq inspektoriga tayyor signallar shaklida taqdim etadi va nazoratni tezlashtiradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda QQS ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilgan. Elektron hisob-fakturalar tizimining joriy etilishi QQS firibgarligiga qarshi kurashda asosiy qadam bo'ldi. Hisob-fakturalar elektron shaklda rasmiylashtirilishi, my.soliq.uz platformasida saqlanishi va kontragentlar zanjirining to'liq ko'rinishi soliq organlariga qalbaki hujjatlarni ancha oson aniqlash imkonini beradi. Bu tizim qog'oz hujjatlar muomalasini kamaytiradi, tekshiruvchilar uchun aniq elektron iz yaratadi va QQS bazasini kengaytirish jarayoniga yordam beradi. Shu bilan birga, ayrim tadbirkorlarning elektron hujjatlarni formal rasmiylashtirib, real aylanmalarni yashirish imkoniyati saqlanib qolayotganini hisobga olib, EHF tizimini boshqa axborot bazalari bilan chuqur integratsiya qilish zarurati mavjud.

Soliq organlari huzurida xavfni tahlil qilish tizimi shakllantirilgan bo'lib, u soliq to'lovchilarni xavf darajasi bo'yicha segmentlash, xavfli guruhlarga chuqur kameral tahlil, sayyor tekshiruv va hujjat talab qilish choralari qo'llash imkonini yaratadi. Xavfli past subyektlarga esa ortiqcha nazorat yuklamasi kamaytiriladi, bu esa soliq ma'muriyatchiligining samaradorligini oshiradi. QQS qaytarishning avtomatlashtirilgan mexanizmi eksportyorlar va intizomli to'lovchilarga tezlashtirilgan qaytaruvni taqdim etib, halol soliq to'lovchilar uchun qulayliklar yaratadi va firibgarlik xavfi yuqori bo'lgan subyektlar avtomatik ravishda chuqur tekshiruv doirasiga tushadi.

Import operatsiyalaridagi firibgarliklarni kamaytirish uchun soliq va bojxona ma'lumotlarining elektron integratsiyasi yo'lga qo'yilgan. Tovar kodlari, import qiymati va QQS summalari elektron tarzda taqqoslanib, qiymatni sun'iy pasaytirish imkoniyatlari sezilarli darajada cheklanadi. Savdo, xizmat ko'rsatish va umumiy ovqatlanish sektorlarida onlayn-kassa apparatlari, fiskal nazorat tizimi va plastik karta to'lovlari bo'yicha real vaqt kuzatuv mexanizmlarining joriy etilishi ham QQS bazasining kengayishiga olib kelmoqda.



Bu islohotlar natijasida O'zbekistonda QQS tushumlarining o'sishi kuzatilmoqda, budjetdagi ulushning barqarorlashuvi, yashirin aylanmalarning ochiqlik sari chiqishi, EHF tizimi, onlayn fiskal nazorat va xavf tahlil modullarining real samarasi namoyon bo'lmoqda. Qalbaki EHFlar va firibgarlik sxemalari tezroq aniqlanmoqda, ko'plab noqonuniy operatsiyalar yuzasidan jinoiy ishlar qo'zg'atilgan. Shu bilan birga, firibgarlar raqamlashtirilgan tizimlarga moslashish tendensiyasini saqlab qolayotganini inobatga olib, chuqur analitik modellarni yanada rivojlantirish ehtiyoji mavjud. Raqamlashtirish QQS bo'shlig'ining qisqarishiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotgani kuzatilmoqda, soya iqtisodiyoti ulushining kamayish ehtimoli yuqori bo'lsa-da, buni ilmiy asosda baholash uchun alohida iqtisodiy-matematik model ishlab chiqish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

QQS firibgarliklari davlat budjeti barqarorligiga, soya iqtisodiyotining kengayishiga va raqobat muhitining buzilishiga olib kelayotgan jiddiy iqtisodiy muammolardan biridir. O'zbekistonda raqamlashtirish, EHF, risk-tahlil nazorati va avtomatik qaytaruv tizimlari muhim ijobiy natijalar bermoqda. Biroq ushbu jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, VAT Gap monitoringi, innovatsion nazorat vositalari va maqsadli profilaktika choralarini kuchaytirish orqali QQS firibgarliklarini keskin kamaytirish mumkin.

Takliflarimiz quyidagilardan iborat:

- har bir elektron hisob-faktura uchun "Invoice Scoring" — xavf balli tizimini joriy etish.
- EHF zanjirini blokcheyn asosida himoyalash.
- O'zbekiston uchun rasmiy VAT Gap hisoblash amaliyotini joriy etish.
- Eksportda QQS qaytarish uchun "yashil va qizil koridor" modelini kuchaytirish.
- QQS firibgarligi yuqori bo'lgan sohalar bo'yicha maxsus profilaktik dasturlar ishlab chiqish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. International Monetary Fund. Measuring the VAT Gap. – IMF Working Paper, Washington D.C., 2014.
2. European Commission. EU VAT Gap Report 2023.
3. OECD. Consumption Tax Trends. Paris, 2022.
4. Sultonov D. QQS borasidagi firibgarliklarning oldini olishga doir ayrim jihatlar. Elektron resurs. 2021. www.norma.uz.
5. Ebrill L., Keen M., Bodin J.-P., Summers V. The Modern VAT. – Washington, D.C.: International Monetary Fund, 2001.– 241 p.
6. Файзеев Р.Т. Перспективы развития противодействия мошенничествам в налоговой сфере. /Файзеев Р.Т. // Право и государство: теория и практика – 2019. -№10 (78). – с.177-181.
7. Попова Н.Ф., Чикалина Н.А. Мошенничество в сфере налогообложения в России. //Международный научно-исследовательский журнал. – 2020. - №1 (91). – с.68-71.,
8. Белохребтов В.С. Схемы совершения мошенничества с возмещением налога на добавленную стоимость. // Известия Тульского государственного университета. Экономические и юридические науки – 2015. - №2-2., с.37-44.
9. Уклонение от уплаты налогов юридическими лицами. Проблемы и перспективы противодействия: монография для магистрантов, обучающихся по программам направлений «Экономика», «Государственный аудит» и «Финансы и кредит» / [И.А. Майбуров и др.]; под ред. И.А. Майбурова. — М.: ЮНИТИДАНА, 2025. — 303 с. — (Серия «Magister»).
10. Дряглина С.А. НЕЗАКОННОЕ ВОЗМЕЩЕНИЕ НДС // Право и государство: теория и практика. 2019. №12 (180).
11. Abdulxayeva Sh. Soliqlarni raqamlashtirish- QQS ning muammo va istiqbollari//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot – 2024. -№8. –486-491-b.
12. Aripova I. Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar//Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot – 2025. -№4. –2070-2075-b.
13. Xotamov K.R., Yusupov J.O. Qo'shilgan qiymat solig'i bo'shlig'ini aniqlashda O'zbekiston tajribasi//Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil - 2024-№12. –449-458-b.
14. International Monetary Fund. Revenue Administration: Tax Fraud and Evasion. – Washington, D.C.: IMF, 2018.
15. OECD. Understanding VAT/GST Fraud: Background Paper. – Paris: OECD Publishing, 2017.
16. <https://www.imv.uz/static/davlat-budjeti-daromadlari-2>
17. <https://xs.uz/uzkr/post/soliq-bozhkhona-va-bank-khodimlaridan-iborat-zhinoij-guruh-245-milliard-som-davlat-mablaglarini-talon-torozh-qildi-dkhkh-2>
18. <https://www.gazeta.uz/oz/2025/10/28/firibgarlik/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>